

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

9/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/9 (4) - 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2024

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy

maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

SodiqovaShohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Насретдинова Дилфуза Мухаммадиновна</i> ЖЕНЩИНЫ ТАТАРКИ В КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ ТУРКЕСТАНА	13-19
<i>Хужаниязов Уктам Ешбаевич</i> ҚОРАҚАЛПОҚ ДАВЛАТ АКАДЕМИК МУСИҚАЛИ ТЕАТРИ МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА	20-25
<i>Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich</i> SURXONDARYO VA QASHQADARYO VILOYATLARIDA DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR, AHOLI BANDLIGI VA MIGRATSIYA JARAYONLARI	26-32
<i>Yakubov O'tkir Shermamatovich</i> XX ASRNING UCHINCHI CHORAGIDAGI IQTISODIY, IJTIMOY O'ZGARISHLAR VA ULARNING DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI	33-37
<i>Саидбобоева Гулзора Нематжоновна</i> ЎРТА ОСИЁ ЭНЕРГЕТИКАРИНИНГ I СЪЕЗДИ ХУСУСИДА	38-43
<i>Muminov Orifxuja</i> QIZILQUMNING LANDSHAFTI VA TARIXIY GEOLOGIYASI	44-49
<i>Avalova Gulshod Murodullayevna</i> HOJI BEKTOSH VALI – MUTASAVVUF FAYLASUF. HOJI BEKTOSH VALI MAJMUASI: TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	50-55
<i>Айтмуратова Жаньлсын Жалгасовна, Жамалов Нурлан Юсупович</i> БУЮК АЛЛОМАЛАРИМИЗНИНГ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ АСОСИЙ ВАЗИФАМИЗ	56-61
<i>Qurbonova Marg'uba</i> TIL SOHASIDAGI O'ZBEKISTON HUKUMATI SIYOSATI, O'ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	62-68
<i>Shoto'rayeva Sitora Xudoyberdi qizi</i> BUXORO XONLIGIDA TOJIDDIN HASANHOJANING TUTGAN O'RNI VA IJTIMOY FAOLIYATI	69-72
<i>Убайдуллаева Моҳисадаф Суннатилла қизи</i> ҚЎҒИРЧОҚ ЎЙИНИНГ ЭНГ ҚАДИМГИ НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС СИФАТИДА	73-76
<i>Xoliqulov Rustam Sharipovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH SOHASIDAGI AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR	77-82
<i>Fayziyev Farrux Uktamovich</i> IMKONIYATI CHEKLANGAN INSONLAR O'RTASIDA O'TKAZILADIGAN XALQARO SPORT MUSOBAQALARINING RIVOJLANISH TARIXI	83-90
<i>Азаматова Гулмира Байирбековна</i> МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҚўЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ	91-96

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Abduvohidov Behzod</i> ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI O'RNI	97-107
<i>Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич, Холиёров Парда Саъдуллаевич</i> КОРХОНАЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИНГ ИЛМИЙ-МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	108-124
<i>Payazov Murod Maksudovich</i> “O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI” AJDA YO'LOVCHI TASHISH TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH DAVR TALABI	125-131
<i>Юнусов Бегенч Мавланбердиевич</i> ИҚТИСОДИЁТ ТАРМОҚЛАРИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ РИВОЖЛАНИШИНИ БАШОРАТЛАШ, УЛАРНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	132-143
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Hoshimjanovich, Sayitbaev Shermirza Datkamirzaevich</i> KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI AYLANMA VOSITALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	144-151
<i>Мадрахимов Кахрамон Эгамберганиевич</i> МИНТАҚАВИЙ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТНИНГ СТРАТЕГИК УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ	152-161
<i>Palvaniyazov Anvar Amatovich</i> МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЙОТИГА ХОРИЙИY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA INVESTITSION SIYOSATNING AHAMIYATI	162-165
<i>Raximbayev Akmal Azatboyevich</i> HUDUDLARDA SANOAT AGLOMERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA ХОРИЙИY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH	166-172
<i>Rahmanova Rushana</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJI VA KADRLAR TAYYORLASHDAGI MUAMMOLAR	173-178
<i>Хайруллоев Шахрам Yunus o'g'li</i> SAMARQAND VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA DINAMIKASI	179-186
<i>Qodirov Bahodir Tursunovich</i> “QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI”NING O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI	187-192
<i>Bekjanov Dilmurad Yuldashovich, G'oyibnazarov Muxammad Xamidbekovich</i> LIZING MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHDA SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARINING AHAMIYATI	193-199
<i>Masharipova Durdona</i> RAQAMLI PLATFORMALARNING GLOBAL TASHQI SAVDOGA TA'SIRI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR	200-206
<i>Нурмухамедова Барно Исмаиловна, Урунова Гульнара Чарикулиевна</i> ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ РЕАЛИЗАЦИИ ИНИЦИАТИВНОГО БЮДЖЕТИРОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	207-213

Xidirova Marg'uba Rustamovna, Zakirov Asilbek Adilovich
KORPORATIV BOSHQARUV MEKANIZMLARI ORQALI AKSIYADORLIK JAMIYATINING
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH 214-218

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Ismoilov Maxamadixon
TALABALARDA FALSAFIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB
MUAMMOLARI 219-223

Shaydullayev Normuhammad
INSON VA JAMIYAT O'ZARO ALOQALARI: MUVOZANAT VA RIVOJLANISH 224-228

Раджапбоева Хуршида Мақсудовна
ШАРОФ РАШИДОВ БАДИИЙ-АДАБИЙ МЕРОСИДАГИ ЭСТЕТИК КЛИШЕНИНГ
УНИКАЛ ЎЗИГА ХОСЛИГИ 229-233

Abdullayeva Marhabo Uskinbayevna
YUSUF XOS HOJIB "QUTADG'U BILIG" ASARIDA AXLOQ MASALASI..... 234-239

Ризаев Илҳом
ТАРТИБ ВА ХАОС: ЎЗ-ЎЗИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ ҲОЯЛАРИНИНГ
ТАРИХИЙ ТАДҚИҚИ 240-247

Niyozova Nilufar
OQILONA TURMUSH SHAROITINI YARATISHDA OILANING O'RNI 248-252

Usmonov Farrux
FAN ETIKASI TUSHUNCHASINING TIZIMLI TAHLILI 253-258

Mirjavxarova Feruzaxon Usmonjonovna
AYOLLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOY, IQTISODIY VA MADANIY ASOSLARI:
TARIXDAN BUGUNGI KUNGACHA 259-266

Primov Baxriddin Abdiraxmonovich
JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MA'NAVIY VA G'OYAVIY
MEKANIZMLAR 267-272

Raxmankulov Farxod Raximkulovich
ISLOHOTLAR JARAYONIDA MULKDORLAR QATLAMINING MILLIY O'ZLIGINI
ANGLASHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI 273-278

Asatov Sodiq Safarovich
YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA PRAGMATIK
YONDASHUVLARNING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI 279-284

Yusupova Feruza Zoyirovna
AXLOQIY TAFAKKURNING TAKOMILASHUVIDA AXLOQIY IDEALGA BO'LGAN
EHTIYOJ 285-290

Aripova Zulfiyaxon Solijonovna
SINERGETIKANING FALSAFIY VA IJTIMOY DUNYOQARASHGA TA'SIRI 291-296

Saodatov Alimardon Abduraxmonovich
YOSHLARDA TABIAT IFLOSLANISHINI OLDINI OLISH VA UNI ASRAB AVAYLASH
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH 297-302

<i>Matluba Abduqodirovna Abdalimova</i> FALSAFIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA ANALITIK VA KRITIK YONDASHUVLAR	303-307
<i>Safarova Tumaris Rustamkulovna</i> KOTIB CHALABIYNING SHARQ ILM-FAN TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI	308-312
<i>Tursunov Muxiddin Boltaevich</i> АФСОНАВИЙ ДУНЁҚАРАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УНИНГ ИНСОН ТАФАККУРИГА ТАЪСИРИ	313-316
<i>Mamanov Jamoliddin Abduraximovich</i> XRISTIANLIK DININING KELIB CHIQISHI VA G'ARB DAVLATLARIGA TARQALISHI	317-326
10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Karimova Ozodakhon Avazovna</i> LINGUOPRAGMATIC STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH A SOMATIC COMPONENT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	327-338
<i>Sayfiddinova Gulnoza</i> MILLIY UYG'ONISH DAVRI QO'QON ADABIY MUHITIDAGI AYRIM TURKUM SHE'RLARNING JANRIY XUSUSIYATLARI	339-344
<i>Abdullayev Ziyodbek Mansurovich</i> O'ZBEK VA NEMIS TILLARI ANTROPONIMIKASIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR: KONTRASTIV TAHLIL	345-352
<i>Otaboyeva Mazmuna Rahimovna</i> FE'LNING SEMANTIK VA GRAMMATIK KATEGORIYALARIDAGI DARAJALANISHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA	353-359
<i>Алиева Эльвина, Темирова Озода</i> ПОВЕЛЕНИЯ И ПОБУДИТЕЛЬНЫЕ ВЫСКАЗЫВАНИЯ СО ЗНАЧЕНИЕМ ЖЕЛАНИЯ В ПОЭТИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ В. Ф. ХОДАСЕВИЧА	360-365
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat o'g'li</i> BADIY TARJIMADA LEKSIK-GRAMMATIK TRANSFORMATSIYALAR TADQIQI (JON GRINNING "THE FAULT IN OUR STARS" ROMANINING O'ZBEK TILIGA TARJIMASI MISOLIDA)	366-372
<i>Maxmudova Farangiz Muzaffar qizi</i> SAID AHMAD HAJVIYALARIDA YUKLAMALARNING AHAMIYATI	373-378
<i>Abdumajitov Xurshid Alisher o'g'li</i> MULOQOT VA MADANIYAT SHARHIDAGI SPORT TILI	379-382
<i>Rajabova Karomat Chorshanbi qizi</i> TURKOLOGIYADA SO'ZLASHUV USLUBIGA DOIR IZLANISHLAR	383-389
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA JINOIY LINGVISTIK BIRLIKLARNING SHAKLLANISHIDA STILISTIK VOSITALARNING O'RNI	390-396
<i>Xasanova Kamila Baxtiyorovna</i> STUDYING ETHNOGRAPHIC VOCABULARY IN THE UZBEK LANGUAGE	397-401
<i>Бобаева Шахноза</i> ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В РЕЧИ	402-407

<i>Рузибаева Азиза Қаҳрамановна</i> АВАЗ ЎТАР ИЖОДИНИНГ ЎЗБЕК ТИЛИГА ТАЪСИРИ	408-413
<i>Umurzakova Aygul Umarovna</i> ARAB TILSHUNOSLIGIDA ZIYORAT TURIZMI TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH JARAYONI	414-418
<i>Sobirova Nodirabegim Murodjon qizi, Egamberdiyeva Sarvinoz Esonali qizi</i> STILISTIK FIGURALARNING TARJIMADAGI O'ZIGA XOSLIGI	419-423
<i>Xo'jamberdiyeva Gavhar Ilhom qizi</i> INGLIZ TILIDA "CHILD" KONSEPTINI AKS ETTIRUVCHI NOMINATSIYALAR	424-427
<i>Мирзаева Феруза Самижоновна</i> ЎЗБЕК ХАЛҚ МАҚОЛЛАРИДА АНТРОПОНИМЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ	428-433
<i>Badalbayeva Maloxat Yulchiyevna</i> TRANSLATION FEATURES OF EMERGENCY TERMS IN ENGLISH AND UZBEK: A COMPARATIVE ANALYSIS	434-438
<i>Berdimurotova Sevara Maxmudovna</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI NEOLOGIZMLARNING YASALISH USULLARI VA QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI	439-444
<i>Po'latova Sarvinoz Botir qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ZIDDIYATLI KOMMUNIKATSIYANING LIGVISTIK EKSPERTIZASI	445-449
<i>Aripova Saodat Taxirovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI NIKOYALAR TARJIMASINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	450-453
<i>Azamatova Gulnoza</i> THE GRAMMATICAL CATEGORY OF NUMBER IN THE GERMAN LANGUAGE	454-458
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Мухитдинова Фирюза</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ И ПОЛИТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	459-465
<i>Имомниязов Дониюрбек Вахтийор о'ғ'ли</i> MULKNI BEGONALASHTIRISH SHARTNOMALARIGA OID KONSEPTUAL YONDASHUVLAR	466-470
<i>Ёкубов Шухратжон Восиджон угли</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК АВТОР И ИЗОБРЕТАТЕЛЬ: АНАЛИЗ ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ ПРОИЗВЕДЕНИЙ И ИЗОБРЕТЕНИЙ, СОЗДАННЫХ ИИ, В РАМКАХ АВТОРСКОГО ПРАВА И ПАТЕНТНОГО ПРАВА	471-477
<i>Худайбердиева Мафтуна Зафар кизи</i> ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРАВА ДЕТЕЙ НА БЕСПЛАТНОЕ И КАЧЕСТВЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ И АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ	478-483
<i>Begimov Rufat Musurmonovich</i> KONSTITUTSIYA – HUQUQ VA ERKINLIKLARIMIZ KAFOLATI	484-488
<i>Миножиддинов Абдурасул Баходирович</i> АЛИМЕНТ МАЖБУРИЯТЛАРНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ	489-494

<i>Иброҳимов Азимжон Абдумумин угли</i> “ЎЗБЕКИСТОН ФУҚАРОЛИК ҚОНУНЧИЛИГИДА КОРПОРАТИВ МУНОСАБАТЛАРГА ОИД ҚОИДАЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ: КОНЦЕПТУАЛ ЁНДАШУВ”	495-500
<i>Koryog'diyev Bobur Umidjon o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK KODEKSINING YANGI TAHRIRI LOYIHASI BIRINCHI BO'LIM 6-BOVIDAGI KONSEPTUAL MASALALAR TAHLILI	501-507
<i>Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич</i> ИЖАРА ШАРТНОМАСИГА ОИД ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ БЎЙИЧА АЙРИМ ЁНДАШУВЛАР	508-514
<i>Саидов Бобур Баҳромжонович</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ЗАЩИТЫ ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ ПОЛЬЗОВАТЕЛЕЙ В ВЕБ-РАЗРАБОТКАХ	515-524
<i>Асадов Шаҳриддин Фаҳриддинович</i> РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА МАСЛАҲАТ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ	525-529
<i>Ганиев Нихолбек Валиевич</i> НОТИЖОРАТ КОРПОРАТИВ ТАШКИЛОТЛАР	530-536
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ortiqova Nargiza Akramovna</i> O'QUVCHILARDA TARBIYAVIY QADRIYATLAR MANBALARI VOSITASIDA UZLUKSIZ MA'NAViy TARBIYANI OSHIRISHGA QARATILGAN SAMARALI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR	537-541
<i>Jamalova Nargiza Ulug'bek qizi</i> PEDAGOGIKA VA GUMANITAR FANLARINING JAMIYATDA TA'LIMNING O'ZGARISHI VA RIVOJLANISHIDA TUTGAN O'RNI	542-547
<i>Norboyev Nabijon Narziqulovich</i> SHAHMAT O'YININING SHAXS INTELEKTUAL SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI	548-553
<i>Batirov Behzod Baratovich</i> FIZIKA TA'LIM MAZMUNINI TABAQALASHTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI	554-559
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i> GENDER METODINING NAZARIY ASOSLARI	560-564
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i> BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIGA INNOVATSION O'QITISH USULLARINING SAMARADORLIGI VA PEDAGOGIK SHAROITLARI	565-569
<i>Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY TARBIYASINING PEDAGOGIK SHARTLARI	570-575
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i> JISMONIY YUKLAMADAN CHARCHASH VA QAYTARILISH DAVRLARINING FIZIOLOGIYASI	576-580
<i>Xudaykulova Dilbarxon Zokirovna, Erkinova Dilshoda Sherali qizi</i> BOLALARDA TADQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN PEDAGOGIK JARAYONNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	581-586

<i>Eshdavlatov Abdullo Boybo'ri o'g'li, Uralov Sardor Abdulla o'g'li</i> TALABALARNING VOLEYBOL MASHG'ULOTLARIDA TEXNIK TAYYORGARLIGI	587-593
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA TALABALARNING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI TIL ELEMENTLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI	594-607
<i>Mirzaeva Kamola Uralovna</i> THE ROLE OF THE FAMILY INSTITUTE IN EDUCATING A PROFESSIONAL GENERATION	608-612
<i>Tursunboyeva Mukhlisa Anvar kizi</i> BILINGUALISM AS A PROMISING FORM IN CHILDREN'S EDUCATION	613-619
<i>Ҳақназарова Нилуфар Қуранбоевна</i> ТАЪЛИМ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ ШАРОИТИДА ПЕДАГОГ КАДРЛАР МАЛАКАСИНИ ОШИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ТИЗИМИНИ СТРУКТУРАВИЙ-ФУНКЦИОНАЛ ТАЪМИНОТИ	620-625
<i>Sheraliyeva Shahnoza Usmanovna</i> INGLIZ TILIDA TALABALAR YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA TURLI YOZMA MATN NAMUNALARINI TAHLIL QILISHGA QARATILGAN MASHQLARNING AHAMIYATI	626-633
<i>Джанабаева Адина</i> ВОЗМОЖНОСТИ ЦИКЛА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН В ФОРМИРОВАНИИ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА	634-641
<i>Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich</i> TALABALARNING JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARIDA KUCH QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH	642-646
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> QASHQADARYO VILOYATIDA PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI	647-651
<i>Садиев Валижон</i> СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ РАЗВИТИЯ ПАТРИОТИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	652-657
<i>Pulatova Muhabbat Egamberdievna</i> UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA O'QITUVCHILARDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYASI	658-663

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE INFLUENCE OF AVAZ UTAR'S CREATION ON THE UZBEKI LANGUAGE

Ruzibayeva Aziza Kahramanovna,
Teacher of Karshi Economy and Pedagogy University
E-mail: azizaruzibayeva007@gmail.com

Abstract. This article examines the influence of the work of the Uzbek writer Avaz Utar on the development of the Uzbek language. The lexical and stylistic features of the author Ÿtar's works and their role in enriching the Uzbek literary language are analyzed. It examines how the author's use of various linguistic tools contributes to the formation of new words and phrases, and also reflects the cultural and social reality of modern Uzbekistan. In the conclusion, the importance of Utar's work in the further development of Uzbek literature and language is emphasized.

Keywords: Avaz Utar, uzbek, vocabulary, literary influence, cultural identity.

АВАЗ ЎТАР ИЖОДИНИНГ ЎЗБЕК ТИЛИГА ТАЪСИРИ

Рузибаева Азиза Қаҳрамановна,
Қарши иқтисодиёт ва педагогика университети ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада ўзбек ёзувчиси Аваз Ўтар ижодининг ўзбек тили ривожига таъсири ўрганилади. Муаллиф Ўтар асарларининг луғавий ва услубий хусусиятларини, ўзбек адабий тилини бойитишдаги ролини таҳлил қилинади. Унда муаллифнинг турли лингвистик воситалардан фойдаланиши янги сўз ва ибораларнинг шаклланишига қандай ҳисса қўшишини ўрганилади, шунингдек, замонавий Ўзбекистоннинг маданий ва ижтимоий воқелигини акс эттиради. Хулоса ўрнида Ўтар ижодининг ўзбек адабиёти ва тилини янада ривожлантиришдаги аҳамияти таъкидланади.

Калит сўзлар: Аваз Ўтар, ўзбек тили, лексика, адабий таъсир, маданий ўзига хослик.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N60>

Кириш. Аваз Ўтар - Аваз Полвонниёз (Ўтар) ўғли (1884.15.8- Хива-1919) — ўзбек маърифатпарвар шоири. Дастлаб мактабда, сўнг Хивадаги Иноқий мадрасасида ўқиди. 18 ёшларида шоир сифатида халқ ўртасида танилди. Муҳаммад Раҳим Соний (Феруз) Аваз Ўтар истеъдодига катта эътибор берган, уни саройга таклиф қилиб Табибийни унга устоз тайин этган. Аммо, Аваз Ўтар сарой ҳаёти билан чиқишолмай, уни тарк этади. XX аср бошларида кўзга ташланаётган миллий уйғониш, истиқлол ғоялари Аваз Ўтар ижодига кучли таъсир кўрсатади. Аваз Ўтар ижодида эркпарварлик, озодлик, маърифатпарварлик ғоялари, турмуш иллатларига қарши қаратилган ҳажвлар пайдо бўла бошлайди, бу даврда шоир юксак инсоний фазилатларни, чинакам инсоний муҳаббатни тараннум этувчи лирик шеърлар, қиталар, рубойлар ёзди. Аваз Ўтар ижодида алоҳида ўрин тутган ҳажвий шеърлар туркуми — «Фалоний» ҳам шу давр маҳсули. Аваз Ўтар «Миллат», «Хуррият»; «Топар эркан, қачон», «Халқ», «Замон» ва

бошқа шеърларида миллат тақдири ва келажагини янги талқин этади. Айрим шеърлари ўша давр вақтли матбуоти («Ойна», «Вақт», «Мулла Насриддин» ва бошқа)да босилган. 2 девони («Саодат ул-иқбол», «Девони Аваз») ва қатор баёзларга киритилган ғазаллари етиб келган. Девонларининг қўлёзма нусхалари Ўзбекистон Фанлар Академияси Шарқшунослик институтида (инв.942, 7102, 3451) сақланади. Республикада мактаблар, кўча ва хиёбонларга Аваз Ўтар номи берилган. Хивада уй-музейи ташкил этилган, ҳайкали ўрнатилган. У ҳақда бадиий асарлар яратилган (Е. Самандар «Ерк садоси» достони, А. Бобожон «Ғазал фожиаси» драмаси, С. Сиёев «Бир чора замон истаб» қиссаси ва бошқа).

Атоқли ўзбек шоири ва ёзувчиси Аваз Ўтар ижоди Ўзбекистон адабий анъанасида муҳим ўрин тутади. Унинг асарлари нафақат мамлакатнинг маданий-тарихий воқелигини акс эттиради, балки ўзбек тили ривожига ҳам сезиларли таъсир кўрсатади. Аваз Ўтар тил бойлиги, услублар ранг-баранглигидан фойдаланиб, ўзига хос адабий услуб яратди ва бу ўзбек адабиёти тараққиётида муҳим босқич бўлди. Шу нуқтаи назардан, унинг ижодининг ўзбек тилига таъсирини ўрганиш тилдаги ҳам лектик, ҳам грамматик ўзгаришларни чуқурроқ англаш, шунингдек, шоирнинг бадиий сўз орқали миллий ўзлиқни шакллантиришга қўшган ҳиссасини баҳолаш имконини беради.

Асосий қисм. Аваз Ўтар нафақат ном, балки ўзбек халқининг маданий тикланиши ва бирлигининг рамзи ҳамдир. Бу атоқли ёзувчи, шоир ва мутафаккир ўзбек адабиёти ва тили тарихида чуқур из қолдириб, замонавий адабий анъаналарнинг шаклланишига сезиларли таъсир кўрсатди. Аваз Ўтар ижоди тафаккур теранлиги, тил бойлиги, образларнинг ёрқинлиги билан ажралиб туради. У ўзбек тилидан ўз фикрини ифодалаш воситаси сифатида фойдалангани унинг бойлигига хизмат қилган. Унинг асарлари халқ ҳикматлари, фолклор нақшлари ва миллий о'зига хослик билан то'лдирилган. Бу эса ўзбек тилини бадиий ифода воситаси сифатида мустаҳкамлаш имконини берди. Аваз Ўтарнинг ўзбек тилига таъсирининг муҳим жиҳатларидан бири унинг луғат бойлигини бойитишдир. Ёзувчи шева сўзлари ва фразеологик birlikлардан фаол фойдалангани унинг асарларини янада жонли, халққа яқинроқ қилган. Янги сўз ва ибораларнинг адабий қўлланишга киритилиши тилнинг ривожига, шунингдек, ўзига хослигини мустаҳкамлашга хизмат қилди.

Икки аср чегарасида, XIX арнинг сўнгги чораги – XX асрнинг биринчи чорагида яшаб ижод этган Хоразм адабий-фалсафий муҳитининг таниқли намояндalarидан бири маърифатпарвар шоир Аваз Ўтар ўғлидир. У 1884-йил ёзининг адоғида пойтахт Хива шаҳрида таваллуд топади. Шоирнинг отаси Полвонниёз Ўтар Гадоиниёз ўғли халқ орасида “уста” номи билан машҳур бўлиб, сартарошлик фаолияти билан шуғулланган. Гарчи оддий бир касб бўлиб кўринса-да, сартарошлик Ўрта Осиё минтақасида анчайин ҳурмат-эътиборга лойиқ, кадрланадиган соҳа ҳисобланарди. Аввало, сартарош аҳли кўпчилик билан мулоқотда бўлиб, замонанинг энг сўнгги янгиликларидан бохабар, турфа ҳангомаларни яхши билувчи аксар одамижон инсонлар бўлишган. Қолаверса, энг муҳим ишлардан бири, фуқаро фарзандларининг “қўлини ҳалоллаш”, яъни хатна маросимларини амалга оширишни халқ ана шундай тан олинган сартарошларга ишониб топширганки, бу жиҳатдан ҳам улар ҳурмат-эътиборга лойиқ зотлар ҳисобланишган[1].

Аваз Ўтар ҳозирги ўзбек адабий тилининг шаклланишида муҳим рол ўйнади. Унинг ёзиш услуби соддаликни шеърий ифода билан уйғунлаштириб, матнларини кенг

оммага очиқ қилади. Бу эса ўзбек тилининг нафақат оғзаки нутқда, балки ёзма нутқда ҳам фаолроқ қўлланила бошлаганига хизмат қилди.

Мутахассислар Полвонниёз Ўтар Гадоиниёз ўғли шунчаки оддий сартарош эмас, балки сарой сартароши бўлганлигини, замонасининг машхур шоир ва санъаткорларидан Огаҳий, Комил, Баёний кабилар билан қалин дўст бўлганлигини ёзишади. Шундай зиёлилар даврасида юрган инсон ўз фарзандининг муносиб таълим-тарбия олишига алоҳида аҳамият бериши табиий эди. Шу тариқа Аваз бошланғич мактабга бориб, тез орада хат-савод чиқаради. Эски мактабни тугатгач, таҳсилни Хивадаги Мадамин Иноқ мадрасасида давом эттирганлиги айтилади. Авазнинг адабиётга ҳаваси жуда эрта уйғониб, отасининг шоир дўстлари таъсирида дастлабки шеърларини машқ қила бошлаганлиги маълум. Мадрасада ўқиб юрган даврида Шарқ адабиёти мумтоз вакилларида Хофиз Шерозий, Абдурахмон Жомий, Лутфий, Алишер Навоийларнинг ижоди билан яқиндан танишди уларга эргашиб ўз ижодиётини такомилга етказа боради. Шоир ҳаётини махсус ўрганган тадқиқотчилар унинг 18 ёшларида шоир сифатида халқ ўртасида танилганлигини қайд этишади. Шу тариқа ёш шоир қаламига мансуб шеърлар созанда ва хонандалар томонидан кўйга солиниб айтила бошланади. Адабиётларда шоирнинг устозлари Баёний, Табибий, замондоши Жуманиёз Хивақий, дўсти Ҳасанмурод Қори – Лафасий ва бошқалар унинг истеъдодига юксак баҳо берганликлари қайд этилади.

Муҳаммад Раҳимхони соний (Феруз) ҳам шоҳ, ҳам шоир бўлганлиги боис ижод аҳлига ихлоси баландлиги билан ажралиб турганлиги ва истеъдод эгаларини саройда жамлаб, уларга ҳар томонлама шароит яратиб беришга катта эътибор қаратганлиги тарихдан маълум. Ана шундай марҳаматдан Аваз ҳам бенаиб қолмайди. Ёш шоирнинг юксак истеъдодидан хабар топган ҳукмдор уни саройга таклиф қилиб Табибийни унга устоз этиб тайинлаганлиги манба ва адабиётларда ўз тасдиғини топган. Мутахассислар таъбири билан айтганда, Табибий жуда кўп илм аҳлига ғамхўрлик қилганидек Авазга ҳам ахлоқ, илм ва шеърят бобида кўп нарса ўргатади. Шунинг учун шоир турли даврларда ёзилган шеърларида Табибийни ўзига устоз билиб зўр ҳурмат билан тилга олади. Қуйидаги мисраларда у назм илмида устози Табибийдек бўлиш орзуси эканлигини, шеърларидан баҳраманд бўлган эл устозинга тасанно дейишлари энг катта шараф эканлигини уқтиради[2, 144-147-бетлар].

Илмий адабиётларда қайд қилинганидек, Аваз камолотга етган бир пайтда сил касалига чалинади ва даволаниш учун Кавказга (1905-1906) боради. Аваз Ўтар Кавказга бораётиб Бокуда бир оз муддат тўхтади. Бокуда шоир озарбайжон демократлари билан учрашиб дўстлашади ва улар билан кейин ҳам ижодий алоқада бўлади. Кавказ сафари Аваз ижодида алоҳида аҳамиятга эга бўлди. У сафар давомида Русия ва Кавказ халқлари ҳаёти, маданияти, адабиёти ва бошқалар билан танишиш имкониятига эга бўлди, озарбайжон халқининг илм-фан, маданият янгиликлари билан қизиқди. У рус, озарбайжон, татар тилларида чиқадиган газеталарни мунтазам равишда кузатиб борди. Тошкент ва Самарқандда чоп этилган матбуот билан бевосита алоқада бўлиб, ёзган ғазалларидан баъзиларини уларда нашр ҳам эттирди.

XX аср бошларида кўзга ташланаётган миллий уйғониш, истиқлол ғоялари Аваз Ўтар ижодига кучли таъсир кўрсатганлиги шубҳасиз. Гарчи жадиличлик ғоялари руҳида ошкора фаолият олиб бормаган бўлсада, унинг маърифатга йўғрилган шеърларида

илгари сурилган фикрлар жадидчилик ғоялари билан ҳамоҳанглик касб этишини кузатиш мумкин. Шоир ижодида шу даврда бўй кўрсатган эркпарварлик, озодлик, маърифатпарварлик ғоялари, турмуш иллатларига қарши қаратилган ҳажвлар шунга далолат қилади. Бу даврда шоир илм-маърифатга даъват этувчи шеърлари билан бир қаторда юксак инсоний фазилатларни, чинакам инсоний муҳаббатни тараннум этувчи лирик шеърлар, қитъалар, рубойлар ҳам ёзганлиги мутахассислар томонидан эътироф этилади.

Аваз Ўтар қисқа умр кўришига қарамасдан, баракали ижод этди ва авлодларга ўзидан салмоқли назмий мерос қолдирди. Сил касали асорати билан шоир, афсуски, 1919 йили 36 ёшида вафот этади. Тадқиқотчилар шоир ижоди жуда ҳам ранг-баранг бўлиб, қамрови ниҳоятда кенг эканлигини, у мумтоз адабиётимиздаги ғазал, мухаммас, мустазод, мусамман, мураббаъ, муламмаъ, таржеъбанд, соқийнома, рубой, қитъа, фард каби жанрларда ижод қилганлигини эътироф этишади [3, 442-445-бетлар].

Демак, Аваз Ўтар ижодининг ўзбек тилига таъсирини ортиқча баҳолаб бўлмайди. Унинг тил ривожига қўшган ҳиссаси сўз бойлигини бойитишда ҳам, адабий анъаналарни шакллантиришда ҳам намоён бўлади. Аваз Ўтрор нафақат Ўзбекистоннинг ўтмиши ва бугуни ўртасидаги кўприк, балки адибларнинг янги авлодларини илҳомлантиришда давом этаётган қудратли маданий ҳаракат тимсолига ҳам айланди.

Маърифатпарварлик ғояларини кенг тарғиб этиш Аваз Ўтар ижодига хос характерли хусусиятлардан бири ҳисобланади. Бу даврга келиб бир пайтлар бутун дунёни илм-маърифат ва кўплаб кашфиётлар билан лол қолдирган ислом шарқи мамлакатлари, айниқса, Ўрта Осиё минтақасидаги мамлакатлар қолоқликка юз тутган эди. Бу қолоқлик кўплаб сабаб ва омиллар билан изоҳланади. Лекин асосийларидан бири Европадаги Буюк географик кашфиётлар натижасида Буюк ипак йўли ўз аҳамиятини йўқотиб, минтақа ҳудудлари халқаро савдо ва маданий ютуқлар алмашинувидан четда қолиб кетганлиги билан боғлиқ эди. Боз устига кечагина дунёвий ва аниқ фанлар ўқитилишига катта ўрин ажратган мадрасалар, эндиликда адабиёт ва схоластикадан нарига ўтолмай қолган эди. Тўғри, ислом шарқи мадрасалари учун диний фанлар ўқитилиши шарт эканлиги исбот талаб қилмайдиган ҳодиса. Лекин дунёвий ва аниқ фанларга урғу бермасдан замон билан бўйлашиш имкондан ташқари эканлиги ҳукмрон сулола вакиллари ва уламоларни бу пайтга келиб кўпам қизиқтирмай қўйган эди десак, бу ҳам адолатдан бўлади. Оқибатда қолоқлик шу даражада шармандали тус оладики, Бухоронинг манғит амирларидан бири Русия кўшинлари қароргоҳига элчи юбориб, сафарда олиб юриб, шахвоний эҳтиёжни қондирса бўладиган сунъий аёл уларда борлигини эшитганлиги ва умрининг асосий қисми ҳарбий юришларда ўтувчи амир учун шундай сунъий аёлдан биттасини тухфа этишларини сўратишгача бориб етади [4, 156-159-бетлар].

Буларнинг бари илм-маърифатдан узоқлашиш, жаҳолатнинг авж олиши билан бевосита боғлиқ эди. Жаҳондаги ўзгариш ва тараққиётдан қисман бўлса-да хабардор бўлган ижодкор зиёлининг бу масалага шунчаки томошабин бўлиб, қўл қовуштириб туриши мумкин эмасди. Илм-маърифатга ошноликка, хорижий тилларни ўрганишга даъват унинг “Тил”, “Мактаб” сингари туркум шеърларида яққол кўринади.

Илм-фанга оид замонавий маълумотлар рус ва Европа тилларида битилган бўлиб, уларни ўрганиш учун ўша кезларда ҳам шу тилларни билиш талаб этиларди.

Маҳмудхўжа Беҳбудий сингари аксарият дунёдан хабардор мутафаккирлар, айниқса, янги даврда аҳоли фарзандларини тил ўрганишга даъват этиб келганлиги шундан. Бу ҳали-ҳануз давом этиб келаётган ва ўз долзарблигини сира йўқотмайдиган мангу мавзу эканлиги энг янги даврда ҳам ўзини намоён этаётганлигига гувоҳ бўлиб турибмиз. Аваз Ўтарнинг бу борадаги куюнчаклигини тушуниш мумкин. Унинг талқинида хорижий тилларни эгаллаш жаҳон билан тиллашув, мулоқот воситасидир. Хорижий тилларни она тилидек эркин билишга ундар экан, шоир ота-оналарни фарзандларини илм-фан уйига юборишга даъват этиб, унда ўқиганлар жаҳонда илғор шахслар бўлиб етишишини башорат қилади ҳамда ўзининг тил билмаслигидан ўкиниб, шундан бағри мудом қон эканлигини, ёш авлод ҳам шундай куйга тушиб қолмаслиги лозимлигини таъсирчан мисралар орқали назмда ифода этади.

Шоир қолоқликдан, жаҳолатдан қутилишнинг бирдан бир чораси замонавий таълим, мактаб-маориф эканлигига қаттиқ ишонади. Бунга нафақат ишонади, балки илғор матбуот орқали билганидан ташқари, зарурий саёҳати давомида бундай мактаблар қандай натижа бериши мумкинлигини ўз кўзи билан кўриб, гувоҳи ҳам бўлган. Шоирнинг “Мактаб” деб аталувчи шеъри ушбу фикрни тўла тасдиқлайди.

Шоир ўз миллати жаҳолат ботқоғига ботиб таназзулга юз тутганлигини эътироф этар экан, жон-у дил билан мактаб очишга бел боғлашга даъват этади. Бу пайтда мактаблар хусусий бўлган ва уларни очиш ва юритишни давлат ўз зиммасига олмаган. Шундай экан, шоирнинг бу даъвати қалби зиёдан холи бўлмаган миллат бойлари, кайвониларига қаратилганлигини англаш қийин эмас. Зеро, оддий халқ истаган тақдирда ҳам бу мураккаб вазифанинг уддасидан чиқа олмасди. Шоир кўнгиллар сурури ва кўзларнинг нури фарзанд эканлигини таъкидлаб, мактаб шаксиз уларнинг умрини обод этишини уқтиради. Қайсики бир миллатга худди биздаги каби инқироз шамоли етса, мактаб албатта унга мустақкамлик бино этишига шоирнинг ишончи комил. Шеър охирида шоир ўзига даъват этиб, олий мактаб очиш йўлида ҳиммат камарини боғлашни айтар экан, мактаб туфайли жоҳиллик ва нодонлик барҳам топишини уқтиради. Бу асли ўз тимсолида шоирнинг миллат ақоибларига даъвати эди ҳамда бу даъват, айниқса, Хоразм мисолида изсиз кетмаганлигини кейинги воқеалар ривожига тасдиқлаганлигига тарих гувоҳлик бериб турибди. Аваз Ўтар бир қатор асарларида ижтимоий тенгсизликни ва унинг кескинлашиб бораётганлигини ҳаққоний тасвирлаб, ижтимоий руҳдаги шеърларида ўзининг озодлик, бахтли ҳаёт ҳақидаги қарашларини баён қилганлиги, “Хуррият”, “Сипоҳийларга”, “Халқ”, “Топар экан қачон?”, “Фидойи халқим”, “Уламоларга” каби қатор асарларида ижодкорнинг келажак хусусидаги фикрлари ўз аксини топганлиги соҳа мутахассислари томонидан қайд этилади [5, 109-142-бетлар].

Шу ўрнида айтиш жоизки, шоир ижодига доир аксарият тадқиқотларда муаммога синфий ёндашув руҳи муайян даражада нуқс этиб, Аваз Ўтар зулм ва истибдодга қарши қалам билан курашган оташин шоир сифатида талқин этилади. Албатта, бундай қарашлар нисбий бирёқламалиқдан холи эмас, деб ўйлаймиз. Аслида Аваз Ўтар ўз даври ва яшаган муҳитининг фарзанди эди. У мавжуд тузумни тубдан ўзгартириш орзусидаги инқилобчи эди десак, ижодкорга туҳмат қилган бўламиз. Унинг адабий-фалсафий мероси ўзининг ранг-баранглиги, жанрлар хилма-хиллиги, ижтимоий муаммоларнинг халқ қалбига етиб борадиган содда ва равон услубда назмга солиниши, умуман ижодиётининг халққа яқинлиги ва манзурлиги билан ажралиб туради. Жаҳолат ва

нодонликка қарши илм-маърифатга даъват руҳида ёзилган шеърлари эса ижодкорнинг дунё кўрганлиги, биқиқ муҳит қобиғида қолиб кетмаганлиги ва илғор фикрли инсон бўлганлигидан далолат беради.

Хулоса. Шундай қилиб, Аваз Ўтар ижоди ўзбек тилига сезиларли таъсир кўрсатиб, уни янги сўзлар, ифода воситалари ва услубий услублар билан бойитган. Шоир халқ оғзаки ижодининг ранг-баранглигини сақлабгина қолмай, адабиётга замонавийлик ва долзарблик ҳам олиб кирди. Унинг асарлари санъат халқ тили ва маданиятига қандай таъсир кўрсатиши, унинг тараққиёти ва ўзини намоён этишига ҳисса қўшиши мисолида хизмат қилади. Аваз Ўтар меросини ўрганиш замонавий тилшунос ва адабиётшунос олимлар учун долзарб бўлиб қолмоқда, ўзбек маданияти контекстида тил ва адабиётнинг ўзаро таъсирини янада чуқурроқ ўрганиш учун янги уфқлар очмоқда.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Tekin, F. (2007). Avaz Otar (1884-1919). *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*, (23).
2. Mallaboyeva, H. (2023). DESCRIPTION OF HUMAN QUALITIES OF THE POET IN SADULLA SIYOYEV'S NOVEL " AVAZ". *Science and innovation*, 2(C3), 114-117.
3. Sharipova, S. (2021). The Traditional Lexical Layer Of The Works Of Avaz Otar. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 442-445.
4. Satimboyevich, X. Y. (2020). Interpretation of the image of avaz otar in fiction. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(5), 156-159.
5. Abdullaeva, O. (2022). ENLIGHTENMENT HYMN IN AVAZ OTAR'S WORK. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 1(18), 109-112.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/9 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).